

## TA'LIM TIZIMI. TA'LIMDA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

*Xalikova Sanobar Amirovna*

*Samarqand viloyat Pastdarg'om tumanida joylashgan  
47-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### Annotasiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimi va unda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari va ustvor vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Xorijiy mamlakatlar tizimi haqida fikr yuritilgan. Nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar orasida ham so'g'lom raqobat muhitini shakllantirish va rag'batlantirish bugungi kun ta'lim tizimida amalga oshirilishi kerak bo'lgan birlamchi vazifalardan ekanligi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, kasbiy mahorat, sog'lom raqobat, ta'lim tizimi, noananaviy ta'lim.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi jamiyat va uning har bir fuqarosining ehtiyojlariga javob beradigan ta'limning qulayligi va sifatini oshirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda o'qitishni individuallashtirish muhim ahamiyatga ega va unga zamonaviy sharoitlarda elektron ta'limdan, jumladan masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda samarali erishish mumkin<sup>1</sup>. Bunda masofaviy ta'lim shakli ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasidan o'tgan ta'lim olish shakli bo'lib, ayniqsa, karonavirus pandemiyasi davrida o'quvchilarning uzluksiz ta'lim olish jarayoni ta'minladi. Buyuk Britaniya, Finlandiya, Yaponiya, AQSh kabi davlatlarning tajribasida o'quvchilarni bilim darajasini oshirish, ularning masofaviy ta'lim olish ehtiyojini qondirish maqsadida bir qator ta'lim platformalar yaratilgan. Individual ta'limning bir qator afzallik jihatlari mavjud. Avvalo, bunda o'quvchi o'z fikrlarini erkin bildirish, kerakoli bo'lgan adabiyotlarni qiyinchiliksiz topish, o'quvchining imkoniyatlarini hisobga oluvchi ta'lim jarayoni, o'quvchining qobiliyatlarini to'g'ri aniqlash va unga motivasiya berish kabi bir qator qulayliklar egadir.

FuelEd (Fuel Education – <http://www.Getfueled.com>) – sinf va sinfdan tashqari ta'lim tizimini o'zgartirish va individuallashtirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator Amerika maktablarining hamkori hisoblanadi. FuelEd tomonidan taklif etilgan individuallashtirilgan ta'lim uchun yondashuv quyidagi komponentlardan iborat:

- 1) O'quvchining kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

<sup>1</sup> Tangirov X. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribasi//Tafakkur ziyosi, - Toshkent.: "Jizzax Davlat Pedagogika Instituti" matbaa bo'limi. 2020 №1. 67 b.

- 2) Har bir ta'lim oluvchiga individual tarzda yondashuv va uni o'qitish vaqtida doimiy qo'llab-quvvatlash;
- 3) Maktabda ta'lim tizimlarini va axborot ta'lim muhitlarini qamrab olinishida PEAK platformasining integrasiyalash imkoniyati;
- 4) Har bir ta'lim oluvchining qobiliyatini, imkoniyatlarini va motivatsiyasini hisobga oladigan ta'lim kontenti (mazmuni);
- 5) Ochiq ta'lim resurslarini joylashtirish imkoniyati;
- 6) O'quvchilarning o'zlari PEAK da o'z resurslarini yaratish va ular bilan ishlash imkoniyati;
- 7) Uchinchi tomon kompaniyalar va noshirlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim kontenti (mazmunidan) foydalanish imkoniyati;
- 8) Ta'lim oluvchilar erishgan natijalar monitoringgi uchun mobil aloqadan foydalansih;
- 9) Kompetentlikka asoslangan holda bilimlarni baholash.

O'quvchi yoshlar orasida raqobat muhitini shakllantirish ko'p jihatdan ularning kreativligi bilan bo'g'liqdir. Zero, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek bir xil fikrlovchi jamoa doimo orqada bo'ladi. O'zgacha o'ylovchi, har bir holatga optimistik ruhda yondashuvchi, kreativ tafakkur tarzi rivojlangan kishilar jamoasini shakllantirish jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifa bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalari ko'rish mumkin. Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan.<sup>2</sup> Demak dunyo ta'lim tizimini zamon talabiga moslab o'zgartirish, eskicha dunyoqarashda voz kechgan holda o'qituvchilar va o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, tahlil qilish yo'riqlarini o'rgatish orqali ular orasida sog'lom ma'naviy raqobat muhitini shakllantirish kerak.

Amerika jurnallaridan birida o'quvchilar-talabalarining darsdan zerikishi, hatto noan'anaviy tarzda o'tilgan darslarga ham qatnashmaslik, darslarga befarqlikning asosiy omillari haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni

<sup>2</sup> Usmonboeva M, To'raev A. Kreativ pedagogika asoslari. – T.: 2016, - 19 b. (193)

shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi<sup>3</sup>".

**Xulosa o`rnida:** ta'limda malakali mutaxassisni tayyorlash, uning bilim darajasini oshirish, kasbga layoqatli kadrlarni salohiyatini rivojlantirish birlamchi masalalardan biridir. Ta'limning maqsadi ta'lim oluvchini nafaqat bilimli balki, xulq-atvor normalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan intellektual madaniyati shakllangan mutaxassisni tayyorlashdir. Bu haqida tadqiqotchi olim Orlova L.V shunday fikrlarni bildiradi: "Ta'lim bo'lajak mutaxassis shaxsining nafaqat bilimlari va xulq-atvor me'yorlari, umuminsoniy va kasbiy qadriyatlarining tashuvchisi sifatida shakllanishi balki, har tomonlama rivojlanishining ta'minlashi kerak. Zamonaviy mutaxassisni kasbiy tayyorlashning maqsadi va mazmuni jamiyatning raqobatbardoshli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi"<sup>4</sup>.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tangirov X. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribasi//Tafakkur ziyosi, -Toshkent.: "Jizzax Davlat Pedagogika Instituti" matbaa bo'limi. 2020 №1. 67 b.
2. Usmonboeva M, To'raev A. Kreativ pedagogika asoslari. – T.: 2016, - 19 b. (193)
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
4. Orlova L.V Kompetentnostniy podxod v obrazovatelnom prosesse vuza [tekst]/ L.V. Orlova // Izvestiya Samarskova nauchnogo sentra Rossiyskoy akademiii nauk, t. 13. – 2011. - №2. – C. 41-44.

<sup>3</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

<sup>4</sup> Orlova L.V Kompetentnostniy podxod v obrazovatelnom prosesse vuza [tekst]/ L.V. Orlova // Izvestiya Samarskova nauchnogo sentra Rossiyskoy akademiii nauk, t. 13. – 2011. - №2. – C. 41-44.